

**Sattorov Xurshidjon, magistrant,
Farg'ona davlat universiteti,
O'zbekiston, Farg'ona sh.**

**Sattorov Khurshidjon, master student,
Fergana state university,
Uzbekistan, Fergana city**

AMIR TEMUR DAVLATINING QUDRATI

Annotatsiya: Temuriylar davri ma'naviyati yurtimiz tarixidagi zarhal harflar bilan bitilgan ulkan xazinadir. Bunday ma'naviy meroslarni o'rganish, ularning mislsiz ma'nolaridan ma'naviy ozuqa olish, yosh avlodni ham bunday ma'naviy ozuqalardan bahramand etib borish va shu yo'l orqali xalq, millat, Vatan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish – biz avlodlarning muqaddas burchlarimizdandir.

Kalit so'zlar: davlat, ma'naviyat, madaniyat, temuriylar davri ma'naviyati.

THE POWER OF AMIR TEMUR'S STATE

Abstract: The spirituality of the Timurid era is a huge treasure in the history of our country, inscribed in gilded letters. To study such spiritual heritage, to receive spiritual nourishment from their unprecedented significance, to give pleasure to the younger generation and thereby contribute to the development of the people, nation, Fatherland, society – this is the sacred duty of generations.

Keywords: state, spirituality, culture, spirituality of the Timurid era.

Amir Temurning siyosat maydoniga qadam qo'yishida ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan birga, uning shaxsiy fazilatlari va imkoniyatlari katta roľ o'ynaganligini inkor etish mumkin emas. Chunonchi Amir Temurning navqiron yoshlik yillari ona yurtining bag'rikeng dala-yu dashtlarida ot choptirib,

chavandozlik, jismoniy chiniqish, merganlik, harbiy o‘yin va mashq sirlarini puxta egallash bilan o‘tganligi unda o‘z yurtiga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat, ota-bobolar o‘gitlariga sadoqat, vatandoshlar or-nomusi uchun kurashish, yurtdoshlarning sha’ni va nufuzini himoya qilishni barcha narsadan ustun qo‘yish kabi xislatlar egasi bo‘lgan dovyurak bahodir bo‘lib yetishishida o‘ziga xos zamin bo‘ldi.

Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan dono hukmdor bo‘lib, ham siyosiy ham ma’naviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatga egadir. Bular:

1. Amir Temur XIV asrdayoq mamlakat va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirib iqtisodiy makonga birlashtirishga harakat qildi. Integratsiyani ishlab chiqib Buyuk ipak yo‘li o‘tgan mamlakatlar o‘rtasida madaniyatlar muloqotini boshlab berdi.

2. Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishda o‘ziga xos maktab yaratdi, adolatli jamiyat qaror toptirishda qonun ustivorligiga rioya qildi.

3. Amir Temur davlatchilik tamoyillarini rivojlantirdi, uni aql-idrok salohiyatiga, taktik va strategik asosida shakllantirdi.

4. Amir Temur sadtanati ma’naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo‘g‘irilgan saltanat edi...

Sohibqiron piru komil shayx Bahovuddin Naqshbandiyning: “Kam egin, kam uxla, kam gapir”, - degan pandu nasihatlariga amal qilgan. SHuningdek, Amir Temur ham arkonu davlatga, barcha mulozimlarga: “Kam englar – ocharchilik ko‘rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo‘lasizlar”, - deya nasihat qildi.

Piru komillarning ma’naviy yuksaklik darajalarni bizlar tasavvur qila olmaymiz. Faqat o‘qib bilganimizki, qalbni poklash borasida ular Alloh muhabbatini qozongan kishilardir.

Biz – vorislar, ma'naviy barkamollik timsollari bo'lgan buyuk ajdodlarimizning qoldirgan boy ma'naviy meroslari, noyob pand-nasihatlarini chuqur o'rganish, shuningdek, yosh avlodga o'rgatish ham faxr, ham sharafli burch deb o'ylaymiz.

Amir Temur o'zi barpo etgan buyuk davlatni milliy va axloqiy qadriyatlariga tayanib idora qildi. Bu esa jamiyatni adolat, insonparvarlik mezonlari asosida boshqarishga, mamlakatda osoyishtalik, tinchlik, totuvlik saqlanib turishiga olib keldi. Temur o'z qo'li ostidagi rahbarlardan, sarkardalardan ham axloqli, odobli, adolatli bo'lishni talab qildi. U o'zining «Tuzuk»larida rahbarlarning axloqli, adolatli bo'lishi jamiyat, davlat va millat uchun qanday katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib berdi.

Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi butun xududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan edi. Davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra xarbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Amir Temur o'ziga qadar mavjud bo'lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal qiladi:

- davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi;
- davlat va jamiyatning siyosiy yaxlitligi buzilmasligi;
- davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilishi;
- boshqaruv tizimi muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakllangan bo'lishi;
- jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli davlat e'tiborida bo'lishi;
- fan va madaniyat ravnaqi to'g'risida doimiy qayg'urish;
- har bir davlat shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;
- davlat tepasidagi kuchlar o'tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g'oyat yuksak ma'naviyat va millatparvarlik ila anglamog'i.

Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to‘qqizinchisini, ya’ni, jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar, manfaatlarini ta’minlashini qo‘shdi. Boshqaruv ikki idoradan: dargox va vazirlik (devon) dan iborat bo‘lgan.

Tarixdan ma’lumki, temuriylar deb nom olgan sulola Movarounnahr, Afg‘oniston, Eron, Ozarbayjonda XIV asr 70-yillaridan XVI asr boshlarigacha hukmronlik qiladi. Temur va uning avlodlari davrida Turonzaminda madaniy taraqqiyotda sezilarli siljishlar ro‘y beradi.

Sohibqiron Amir Temurning buyuk saltanati juda katta va boy ma’naviy zamininga qurilgan, uning davlatining asosiy ustuni ma’naviylik bo‘lgan edi. Mana shu poydevor Temurning “Temur tuzuklari” asarida bayon qilingan. “Temur tuzuklari”da barcha voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Asarda Amir Temurning asosiy doktrinasi - jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va axloqiy tamoyillari ifodalangan.

“Tuzuqlar” ikki qismdan iborat. Birinchi qismda jahon tarixida mashhur foh, sarkarda va iste’dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning 7 yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, aniqrog‘i, uning Movarounnahrda Markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritish, feodal tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish, qo‘shni yurt va mamlakatlarni, masalan, eron hamda Afg‘onistonni o‘z tasarrufiga kiritish, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon (1376-1395), butun Yevropaga qo‘rquv va dahshat solgan Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389-1402)ga qarshi va, nihoyat, buyuk jahongirning Ozarboyjon, Gruziya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qism jahongirning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o‘ziga xos vasiyat va pandnasihatlaridan iborat. Shuning uchun buyuk bobomizning fan va madaniyat sohasiga bo‘lgan buyuk hurmati, beg‘araz homiyligining tub mohiyatini uning ma’naviyatga ijobiy munosabati, bu sohadagi axloqiy dasturlarini chuqur o‘rganmasdan turib, chuqur anglash mumkin emas.

Amir Temur to‘la ravishda asoslangan ma’naviy talablar, ehtiyojlar, tamoyillarga tayangan holda o‘sha davrda ma’naviy madaniyat taraqqiyotiga katta ishonch bilan qaraganligini ham ta’kidlash kerak. U o‘z saltanatida tili, e’tiqodi, urf -odatlarini, xududlari turlicha bo‘lgan kishilarning hamjihatligi uchun ham ko‘p qayg‘uradi. Jahonning turli mamlakatlaridan keltirilgan minglab hunarmandlarni ish bilan ta’minlaydi, ular o‘rtasidagi munosabatlarning samimiy bo‘lishiga e’tibor beradi.

“Temur tuzuklari”dagi ko‘plab fikrlar hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Temuriylar davrida yaratilgan bunday noyob ma’naviy meroslarni o‘rganish va asrab-avaylash bizlarning insoniy burchimizdir.

Temur va temuriyodalarni yaratgan moddiy va ma’naviy meros hozirgi kunda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Bu meroslarni asrab-avaylash va o‘rganish biz, yoshlarning faxrli burchimizdir.

Adabiyotlar:

1. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. Toshkent, 2015.
2. O‘ljayeva Sh. Amir Temur davlat boshqaruvi. – T.: Akademiya, 2017.
3. Karimov, U., Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The role and significance of spiritual values in youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 181-185.
4. Салиева, Н. С., & Абдуллаев, Ш. (2021). Педагогические идеи Алишера Навои и их влияние на воспитание подрастающего поколения. *Молодой ученый*, (10), 207-209.